



QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 19-avgust

232-4-60-Q/25

Koson tuman hokimligi

Koson tumani mahalliy budjetining 2026-yil uchun budjet so‘rovi va 2027-2028-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish va uni viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 90-94-moddalariga muvofiq, Qashqadaryo viloyat hokimining 2025-yil 8-avgustdagi “Qashqadaryo viloyati mahalliy budjetining 2026-yil uchun budjet so‘rovi va 2027-2028-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish chora-tadbirlari haqida”gi 388-4-0-Q/25-sonli qaroriga asosan Koson tumani mahalliy budjetining 2026-yil uchun budjet so‘rovi va 2027-2028-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish va uni viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etilishini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 8-avgustdagi “Qashqadaryo viloyati mahalliy budjetining 2026-yil uchun budjet so‘rovi va 2027-2028-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish chora-tadbirlari haqida”gi 388-4-0-Q/25-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Koson tumani mahalliy budjetining 2026-yil uchun budjet so‘rovi va 2027-2028-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish va uni viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 902-moddasiga muvofiq, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining xati bilan Shahrisabz tumani mahalliy budjetining 2026-2028-yillardagi daromadlari, xarajatlari va transfertlarining cheklangan miqdori ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Artikov): belgilangan muddatlarda tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'larini taqsimlovchilarga - kelgusi moliya yili uchun ajratiladigan budjet mablag'larining cheklangan miqdorlarini yetkazilishini ta'minlasin.

5. Tuman mahalliy budjetidan mablag' oluvchi budjet mablag'larini taqsimlovchilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari hamda tegishli Davlat dasturlarida ko'zda tutilgan chora-tadbirlari ijrosini 2026-yil uchun budjet so'rovi va 2027-2028-yillar budjet mo'ljallarini tuzish davomida hisobga olishni;

2026-yil uchun budjet so'rovi va 2027-2028-yillar uchun budjet mo'ljallarini belgilangan muddatlarda tuman iqtisodiyot va moliya bo'limiga taqdim etilishini ta'minlasin.

6. Ishchi guruhi rahbari (H.Nazarov):

tuman mahalliy budjetining 2026-yil uchun budjet so'rovi va 2027-2028-yillar uchun budjet mo'ljallarini tuzishda:

xarajatlar bo'yicha – tuman budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari taqsimlovchilarning budjet so'rovlari hamda tuman budjetidan moliyalashtiriladigan ayrim tadbirlar uchun xarajatlarning prognoz qilinayotgan hajmi asosida ishlab chiqilishini;

tuman mahalliy budjeti loyihasini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo'l qo'yilmasligini nazarda tutsin.

7. Tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i (A.Yusupov):

2026-yil uchun tuman budjet daromadlari prognozini ishlab chiqishda:

Davlat budjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda soliq organlari va hokimlik bo'linmalari tomonidan ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida soliq turlari kesimida ishlab chiqib, tuman hokimligiga taqdim etilishini ta'minlasin.

8. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Artikov) Koson tuman mahalliy budjetining kelgusi moliya yili uchun budjet so'rovlari loyihalarini belgilangan muddatlarda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etilishini ta'minlasin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari H.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi



A.Boykaraev

Koson tumani hokimining
2025-yil 19-avgustdagi
232-4-60-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Koson tumani mahalliy budjetining 2026-yil uchun budjet so'rovi va 2027-2028-yillar uchun budjet mo'ljallarini tuzish va uni viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha tuman ishchi guruhi

TARKIBI

№	I.F.SH	-	Lavozimi
1.	H.Nazarov	-	Tuman hokimining Moliya va iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari- iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i, <i>Ishchi gurux raxbari</i>
2.	A.Artikov	-	Koson tumani Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari, <i>Ishchi gurux raxbari o'rinbosari</i>
3.	A.Yusupov	-	Tuman Soliq inspeksiyasi boshlig'i, <i>Ishchi gurux raxbari o'rinbosari</i>
Ishchi gurux a'zolari			
4.	A.Tursunov	-	Tuman maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi boshlig'i
5.	Sh.Avazov	-	Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i
6.	N.Bomirov	-	Tuman madaniyat bo'limi boshlig'i
7.	S.Qurbonov	-	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i
8.	Sh.Turdialiyev	-	Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari, <i>ishchi guruhi kotibi</i>

* Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan hollarda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoxud ushbu lavozim vazifalarini bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.